

AXLOQ-ODOB QOIDALARI ORQALI YOSHLARNI YETUK QILIB TARBIYALASH USULLARI

Shermatova Mahfuza Rahimjanovna
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Axloqiy madaniyat - axloqiy tarbiya talqinida hal etilishi lozim. Axloqiy tarbiya – jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli hisoblanadi. Maqola yoshlarni har tomonlama odob-axloq doirasida yetuk va barkamol qilib tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Odob, hulq, axloq, oila, e'tiqod, ziynat, adolat, burch, ona, vatan, burch, huquqbuzarlik, ma'naviy-axloqiy tamoyil, mehr-muhabbat, muomala, xulq-odob, me'yor, axloqiy ong, axloqiy his, hissiyot, munosabat, xatti-harakat.

ОБУЧЕНИЕ МОЛОДЕЖИ С ПОМОЩЬЮ ЭТИЧЕСКИХ КОДЕКСОВ МЕТОДЫ СОЗРЕВАНИЯ

Абстрактный: Нравственную культуру следует рассматривать в контексте нравственного воспитания. Нравственное воспитание является важным социальным явлением в духовной жизни общества, представляет собой форму внедрения в сознание каждого поколения системы этических норм и нравственных качеств, соответствующих требованиям времени. Статья направлена на воспитание у молодежи зрелости и всестороннего развития в рамках всесторонней нравственности.

Ключевые слова: Манеры, характер, этика, семья, вера, украшение, справедливость, долг, мать, родина, долг, обида, духовно-нравственное начало, любовь, отношение, поведение, норма, нравственное сознание, нравственное чувство, эмоция, отношение, поведение.

METHODS OF MATURING YOUTH THROUGH ETHICS AND RULES

Annotation: Moral culture should be addressed in the context of moral education. Moral education is an important social phenomenon in the spiritual life of society and is a form of instilling the system of ethics and moral qualities into the consciousness of each generation based on the requirements of the times. The article serves to educate young people in a comprehensive manner and in a mature and perfect manner within the framework of ethics.

Keywords: Ethics, character, morality, family, faith, adornment, justice, duty, mother, homeland, duty, offense, spiritual and moral principle, love, behavior, etiquette, norm, moral consciousness, moral feeling, emotion, attitude, behavior.

KIRISH

Axloqiy tarbiya tuzilmasi – uch omil-asosidan iborat: axloqiy anglash: (axloqiy ong), axloqiy his etish (axloqiy hissiyot) va axloqiy munosabatlar (axloqiy xatti-harakatlar) orqali namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiya jarayonida bu omillar doimo birga ishtirok etib, bir-birini taqozo etib keladi. Axloqiy tarbiya tushunchalariga ezgulik, burch, vijdon, saxiylik, hurmat, halollik, poklik, rostgo'ylik kabi kategoriyalar kiradi. Kategoriyalar (yunoncha, kategoria — mulohaza, fikr; belgi) (falsafada) — voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Yoshlarning axloqiy nuqtai nazarlarini shakllantirishda tarbiya jarayonining barcha qatlamlari, jumladan, maktab, oilaviy tarbiya, va jamiyat ta'sirini o'rgangan Sh.A. Azimovning "Pedagogika" asari yoshlar tarbiyasida axloq-odob qoidalarining muhim o'rnini ta'kidlaydi. A.Frolov, yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda psixologik metodlarni qo'llashning zarurligini ko'rsatadi. N.M. Nikolaevning asarida yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda qo'llaniladigan turli metodlar va usullar haqida batafsil so'z yuritiladi. M. Hoshimovning "Falsafa va tarbiya" asari yoshlarni tarbiyalashning falsafiy asoslarini o'rganadi. Kitobda axloq-odob qoidalarini yoshlar ongiga singdirishda falsafiy yondashuvlarning o'rne ko'rsatilgan. Kitobda yoshlarda ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni oshirish, yaxshilik, halollik, adolat kabi axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashning metodlari ko'rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kategoriyalar bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy taraqqiyotining umumlashgan natijasi bo'lib vujudga kelgan. Ya'ni insonda ahloq va odob tushunchalari shakllanishi kerak. Anglab amalga oshirilgan har qanday axloqiy qaror zahirida axloqiy hissiyot yotadi. Axloqiy tarbiya jamiyatning rivojiga katta ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Axloqsiz insonlarning jamiyatda bo'lishi atrofda insonlarga har tomonlama salbiy ta'sirini ko'rsatib ulguradi, shunday ekan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda ehtiyot choralarini ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi, ta'lim-tarbiya jarayonida har hil yo'llar bilan, har hil usullar bilan, darslarda, amaliy mashg'ulotlarda, matn, asarlar yoki xalq og'zaki ijodi namunalari tahlil qilish orqali

va boshqa tadbirlarda ham doimo, muntazam, uzluksiz axloq, odob normalarini tushuntirib borish hozirgi davr talabi bo'lib qolmoqda, bunga befarqlik yaramaydi, buning uchun har bir shaxs mas'ul hisoblanadi.

Axloqiy madaniyatning yana bir jihati bor: unda odob bilan go'zallikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, axloqiy madaniyat orqali odobning qat'iy qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Kasbiy odob axloqiy madaniyatning yuksak shakllaridan biri bo'lib, uning jamiyat hayotidagi o'rni beqiyosdir. Muallimlik odobi, san'atkor odobi, jurnalist odobi, rahbar odobi singari kasbiy odob turlari bunga misol bo'la oladi. Kasbiy odob amaliy axloq tarzida namoyon bo'ladigan ma'naviy hodisa bo'lib ijodiy fanlarda to'liq egallanadi. Kasbga oid bilimlar, kasbni egallashga oid bo'lgan matnlar, hikoyalar, asarlar orqali shakllanib boradi. O'qituvchi kasbga oid matn tahlilini turli xil kasblar haqida ma'lumotlarni hayotga bog'lab berish orqali maqsadga erishish mumkin.

Axloqiy tarbiya hamma berilgan matnlarda o'z aksini topgan bo'lib, bu o'quvchilarga yetkazilganda ijobiy natijalar bilan hayotga tadbqiq etib berilishi lozim bo'ladi. Axloqiy tarbiya adabiyot, psixologiya, etika va estetika fanlari o'rganadigan ilmiy kategoriyadir. Har bir pedagogda etika, estetika, odob, axloq kabi fazilatlar hamroh bo'lishi kerak. Axloqiy tarbiya deganda o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan insoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. O'quvchilarni har bir darsda, har bir mashg'ulotda odob-axloq qoidalari asosida ma'naviy ruhida tarbiyalash lozim, ayniqsa oilada, maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchulari, maktab o'quvchilarini ahloqiy madaniyatini doimo uzluksiz shakllantirib borish vazifasi qo'yilishi va buni bajarishda pedagoglar, ota-ona va hattoki hamma shaxs, atrofdagi insonlar ham birdek mas'uliyat bilan yondashish lozim bo'ladi.

Axloqiy tarbiya – insonni komillikka eltuvchi yo'l. Uning vositalari ko'p, biri an'anaviy tarbiya bo'lsa, ikkinchisi zamonaviy tarbiyadir. Shuning uchun ham rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim- tarbiyasi bizga tadbqiq etilib xalqning manfaati yo'lida milliy urf-odatlar, milliy an'analar ruhuda darslarni tashkil etish

vazifasi qo'yildi. O'qish darslarida matn tahlili orqali milliy tarbiya berish o'ta muhim vazifa bo'lib, milliy tarbiyasi tadbiq etilishi milliylikni, vatanparvarlikni yuksaltiradi. Odatda, har ikki turdagi vositalardan samarali foydalaniladi. Maktab ta'limida axloqiy tarbiyada xalq og'zaki namunalari, ertak va rivoyatlar, pand-nasihatlar ruhidagi matn tahlili an'anaviy tarbiya o'yin va o'yinchoqlar vositasidagi zamonaviy tarbiya bilan o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi muhim hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi – san'at. U aholining barcha tabaqasini – turli yosh va kasbu-kordagi insonlarni qamrab oladi. Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li namunaviylik tamoyilidir. Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi ham maqsadga muvofiqdir, bu pedagogdan katta mahoratni talab etadi. Matn tahlili o'qib-o'rganish orqali aqliy qobiliyatning rivojlanishida namoyon bo'lsa ma'naviy yetuklik yillar davomida shakllanib boradi. Shaxsning axloqiy tarbiyasi uning muomala odobi, etiket qoidalariga rioya etishi, kasbiy odobi hamda o'zgalarga nisbatan munosabatning barcha turlarida ko'rinishi mumkin. Axloqiy munosabatlar – kishilar faoliyatini muvofiqlashtirib, ularning ezgu, insoniy munosabatlarini ifoda etadi. O'quvchilar hayotda oilada turli munosabatlar girdobida bo'ladilar, buni o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida ayniqsa o'qish darslarida matn tahlili orqali hayotga bog'lab o'rgatishi axloqiy munosabatlarni jobiy natijasini berishini ko'radi.

Farzandlarimiz ham rivoyat, hikoyat va ibratli so'zlarga juda muhtojdirlar. Bu hozirgi jarayonda juda muhim, chunki internet asrida yashayapgan ekanmiz kitob mutoalasi, matn tahlili yoshlar hayotida albatta o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Boshlang'ich sinflarda ijodiy darslar orqali o'quvchilarni odob-axloq qoidalarini asosida tarbiyalash muhim bo'lib, o'qish ijodiy fan sifatida o'quvchilarni odob-axloq doirasida tarbiya topishida katta zamin yaratadi. Chunki, bolalar o'qish orqali, matn tahlili orqali o'zlari ham ijod qilishlari mumkin albatta. Sher yozishlari, kichik matnlar yozishlari, hikoyalar tuzishlari mumkin. Buning uchun ijodiy to'garaklar ishlashi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni odob-axloq qoidalarini asosida tarbiyalab borish muhim ahamiyat kasb etib, bu qoidalar qarorlar va tamoyillar asosida takomillashadi:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida", "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va umume'tirof etilgan ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan.

2. Ichki tartib qoidalari - umumiy o'rta ta'lim muassasasida xodimlar va o'quvchilar tomonidan ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarda va muassasa Ustavida belgilab qo'yilgan ta'lim jarayonida rioya etilishi shart bo'lgan tartib va qoidalar. Odob-axloq qoidalari - umumiy o'rta ta'lim muassasasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida xodimlar, o'quvchilar va ota-onalar uchun belgilangan xulq-atvor me'yorlari.

3. Mazkur ichki tartib va odob-axloq qoidalari umumiy o'rta ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishidagi faoliyati bilan bog'liq asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasi jamoasi va o'quvchilari rioya etishlari uchun majburiy hisoblanadi.

4. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari (keyingi o'rinlarda – Qoidalar) ta'lim muassasasi rahbariyati, pedagog va texnik xodimlari (keyingi o'rinlarda – jamoa a'zolari) hamda o'quvchilari, ularning ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) uchun o'zaro munosabatlarda odob-axloq, xulq-atvor me'yorlariga qo'yiladigan minimal talablarni belgilaydi.

5. Ushbu Qoidalar umumiy o'rta ta'lim muassasasida (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasasi) ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, o'qituvchi mavqeyining daxlsizligini e'tirof etish, do'stona muhitni yaratish, o'quvchilar tomonidan o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, inson va uning huquqlariga hurmatni oshirish, odob-axloq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

6. Mazkur Qoidalar Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida tatbiq etilad, nodavlat va boshqa ta'lim muassasalari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

7. Qoidalarining joriy etishdan maqsad ta'lim muassasasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, o'quvchilarga zamon talablari va milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya berish, shaxs va uning huquqlarini hurmat qilish, odob-axloq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchilar sog'lig'ini saqlash, ta'lim muassasasi mulki, o'quv jihozlari va xodimlar xavfsizligini ta'minlashga imkon beradigan do'stona muhitni yaratishdan iborat.

8. Qoidalar jamoa a'zolarining ta'lim muassasasi hududida, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar, tanaffus vaqtlarida, ta'lim va tarbiya bilan bog'liq tadbirlarda o'zlarini tutishini tartibga soladigan me'yorlar hisoblanadi.

9. Mazkur qoidalar jamoa a'zolari va o'quvchilar uchun ta'lim muassasasi hududida majburiy hisoblanadi.

10. Qoidalariga amal qilish yuzasidan jamoatchilik, ota-onalar, ta'lim muassasalari pedagog xodimlari orasida ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ibot qilinadi.

Yuqorida keltirilgan odob-axloq qoidalari har bir shaxs uchun tartib-intizom sifatida amal qiladi, chunki, shahar bedarvoza emas degandek har bir harakatning hisobi, javobi bor, albatta. O'qish faqatgina ta'lim muassasida emas balki, oilada ota-ona ko'magida ham davom etishi lozim. Kitobga muhabbat oiladan boshlanadi, kitobga mutoalaga, matn tahliliga mehr qo'ygan insondan yomonlik chiqmaydi. Oilada farzandlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat ota-ona, jamiyat bilan hamnafas bo'lib, onglilik, vijdon kabi fazilatlar, kitobga mehr qo'yish, biror matnni o'qib uni hayotga tatbiq etib berish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ota-onaning o'zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axloq-odob qoidalari orqali yoshlarni tarbiyalash - jamiyatda axloqiy va ma'naviy qadr-qimmatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

- tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik, psixologik va ijtimoiy usullar samarali natijalar beradi.

- **ota-onalar, tarbiyachilar va jamiyat** birgalikda yoshlarning axloqiy shakllanishi uchun zarur sharoit yaratishi kerak. Bu, yoshlarni axloqiy jihatdan yetuk, mas'uliyatli va ijtimoiy faollikka tayyor shaxslar sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

- **ijtimoiy muhit va iqtisodiy sharoitlar** yoshlarning axloqiy tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ularni tarbiyalashda bu omillarni hisobga olish zarur.

Umuman olganda, axloq-odob qoidalari orqali yoshlarni tarbiyalash metodlari va yondashuvlari ko'p jihatdan samarali bo'lib, yoshlarni ijtimoiy va axloqiy jihatdan yetuk insonlar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bu jarayonda pedagogik va psixologik yondashuvlar birgalikda ishlatilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyatda bola o'z o'rnini topishi uchun ota-ona ham o'qituvchi ham mas'ul bo'lib, umumiy o'rta ta'lim muasalarida ham tarbiya hamkorlikda davom ettirib boriladi va u keying ta'lim jarayonlarida uzluksiz davom etadi. Nafaqat darslar davomida ta'lim-tarbiyani turli suhbatlar, uchrashuvlar, tadbirlar, ko'rik-tanlovlar hamkorligida odob-axloq qoidalarini o'rgatibgina qolmay ma'naviy tarbiyani jamoada, oilada, jamiyatda amalda qo'llab borish ma'nan yuksak yoshlarni tarbiyalashdagi natijaning samaradorlikka erishish garovi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Shavkat Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston Strategiyasi", Toshkent:, 2021 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017 byil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuvch", Toshkent, 2008 yil.
3. Munavvarov A.K. Pedagogik qobiliyat va mahorat".-T: O'qituvchi, 1998 yil.
3. Xalq ta'limi vazirligining 2013 yil 28 fevraldagi 74 -sonli buyrug'iga ilova.

4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi, 1997y, 11-12-son, 150-modda, 2013y, 41-son, 543-modda.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. –T.:TDPU, 2012 yil.